## TIJORAT BANKLARIDA KREDIT XIZMATLARINI BOSHQARISH

**Allaniyazova Kamila Kongiratbaevna**
Qoraqalpoq davlat universiteti, mustaqil tadqiqodchisi
kamilaasaka76@gmail.com , telefon: +998904222424

**Annotatsiya:** Mazkur tezisning maqsadi — O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit xizmatlarini shakillantirishda muammoli kreditlar holatini tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etishning samarali yo'llarini ilmiy asosda ko'rsatib berishdan iborat. Taklif etilgan choralar bank faoliyati barqarorligini ta'minlash va kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** muammoli kreditlar, tijorat banklari, risk-menejment, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar.

**Kirish**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bank tizimi mamlakat moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari real sektor subyektlariga kreditlar taqdim etish orqali ishlab chiqarish, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, kredit portfelida muammoli kreditlar (Non-Performing Loans — NPL) ulushining ortishi bank tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muammoli kreditlar bank likvidligining pasayishi, foydaning kamayishi va investitsion jozibadorlikning susayishiga sabab bo'ladi.

Muammoli kredit — bu belgilangan muddatda qarzdor tomonidan asosiy qarz yoki foiz bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan kredit hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda 90 kundan ortiq kechiktirilgan kreditlar muammoli kredit sifatida tasniflanadi.

Muammoli kreditlar miqdorining ortishi bank aktivlari sifatining yomonlashuviga, foyda marjasining qisqarishiga va moliyaviy barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Shu sababli, bank tizimida kredit portfeli sifatini doimiy ravishda monitoring qilish juda muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda Markaziy bank tomonidan muammoli kreditlarni aniqlash va baholash uchun belgilangan me'yorlar mavjud bo'lib, ular xalqaro standartlarga muvofiq ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

**Tijorat banklarida muammoli kreditlar holati tahlili**

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmlari sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi ham ma'lum darajada o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

| Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) тўғрисида 2026 йил 1 август ҳолатига маълумот | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *млрд. сўм* |
| № | Банк номи | Кредит портфель | Муаммоли кредилар (NPL) | Муаммоли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши |
| **Жами** | | **644 637** | **23 929** | **3,7%** |
| **Давлат улуши мавжуд банклар** | | **421 937** | **16 802** | **4,0%** |
| 1 | Ўзмиллийбанк | 105 491 | 3 197 | 3,0% |
| 2 | Агробанк | 92 643 | 3 184 | 3,4% |
| 3 | Ўзсаноатқурилишбанк | 59 968 | 1 910 | 3,2% |
| 4 | Асака банк | 39 617 | 1 776 | 4,5% |
| 5 | Халқ банки | 37 499 | 1 535 | 4,1% |
| 6 | Бизнесни ривожлантириш банк | 26 220 | 1 532 | 5,8% |
| 7 | Микрокредитбанк | 23 124 | 2 282 | 9,9% |
| 8 | Алоқа банк | 22 392 | 805 | 3,6% |
| 9 | Турон банк | 14 983 | 582 | 3,9% |

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda muammoli kreditlar umumiy kredit portfelining 5,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 4,5 foizni tashkil etadi. 2025-yilning 1-sentyabr holatiga muammoli kreditlar umumiy kredit portfelining 3,8 foizini tashkil etmoqda. Ayrim davlat ishtirokidagi banklarda bu ulush 4–6 foizgacha ko'tarilgan holda saqlanib qolmoqda.

Davlat banklari orasida muammoli kreditlar ulushi Mikrokreditbankda eng yuqori 1-avgust holatiga Mikrokreditbank kreditlarining 9,9 foizi muammoli kreditlarga to'g'ri kelmoqda. Bu davlat ulushi mavjud banklar orasidagi eng yuqori ko'rsatkich.

Bankning 23,1 trln so'mlik kredit portfelidan 2,28 trln so'mi muammoli.

Davlat banklari orasida keyingi yuqori ko'rsatkichlar Biznesni rivojlantirish banki — 5,8%, Asaka bank — 4,5% va Xalq bankida — 4,1%.

Tarmoq kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, muammoli kreditlarning asosiy qismi qurilish, savdo va ishlab chiqarish sohalariga to'g'ri keladi. Bu sohalardagi bozor konyunkturasi o'zgaruvchanligi va likvidlik yetishmasligi qarzdorlar majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishni qiyinlashtirmoqda.

**Xulosa va takliflar**

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, muammoli kreditlar darajasi hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimi uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ular moliyaviy barqarorlikka, likvidlikka va investitsion muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli kreditlar darajasini pasaytirish va oldini olish bo'yicha quyidagi takliflar amaliy ahamiyatga ega:

• Banklarda risk tahlilini kuchaytirish va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish;



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

• Qarzdorlar faoliyatini doimiy monitoring qilish;
• Kreditlar sifatini baholash bo'yicha xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish;
• Qonunchilik bazasini takomillashtirish va sud-ijro tizimini soddalashtirish.
• Tijorat banklarida kredit xavfini boshqarish samaradorligini oshirishda sug'urta mexanizmlarining rolini kuchaytirish.

Muammoli kreditlarni bartaraf etish tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Bank tizimida kredit xavflarini samarali boshqarish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2017.732 b.
2. Casu, Barbara Girardone, Claudia Molyneux, Philip Introduction to banking, 2nd edition, Harlow: Pearson. 2015
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari — www.cbu.uz
4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishga oid farmon va qarorlari.- https://Lex.uz/



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.